

6071150-Mexatronika va robototexnika
bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejalarini amalga oshirish to'g'risida
XULOSA

Toshkent sh.

2023-yil 12-may

Ishlab chiqilgan hujjat:

“Modernization of Mechatronics and Robotics for Bachelor degree in Uzbekistan through Innovative Ideas and Digital Technology” (609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP) loyihasi doirasida O'zbekiston Respublikasi va Yevropa davlatlarining yetakchi universitetlari hamkorligida quyidagi oliy ta'lim muassasalarining 6071150-Mexatronika va robototexnika ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejalarini ishlab chiqilgan:

- Toshkent davlat texnika universiteti – o'quv reja;
- Andijon mashinasozlik instituti – o'quv reja;
- Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti – o'quv reja;
- Farg'ona politexnika instituti – o'quv reja;
- Toshkent axborot texnologiyalari universitetlari – o'quv reja.

Malaka talabalariga mosligi:

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022 yil 29 avgustdagi 5-sonli yig'ilish bayonnomasi va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi 302-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan 6071150-Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talabalariga mos keladi.

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartiga mosligi:

Ta'lim yo'nalishining o'quv rejalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 19 oktabrdagi “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar” O'zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to'g'risidagi 35-2021-son buyrug'i bilan tasdiqlangan “Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti” talablari asosida ishlab chiqilgan, jumladan quyidagi talablarga to'liq mos keladi:

- O'qish muddati – 4 yil
- Haftalar soni – 204 hafta
- Akademik soat miqdori – 7200 soat
- Kredit miqdori – 240 kredit
- O'qish tartibi – kredit-modul tizimi

Ishda qo'llash talablari:

Toshkent davlat texnika universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti, Farg'ona politexnika instituti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetlari tomonidan ishlab chiqilgan 6071150-Mexatronika va robototexnika bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejalarini 2023/2024 o'quv yilidan boshlab o'quv faoliyatida qo'llanishini mumkin.

Vazirning
birinchi o'rinbosari



K.Karimov